

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA TARBIYACHINING KREATIVLIGI

Mansurova Lobar Luqmon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
G-mail: lobarmansurova252@gmail.com

G'ofurova Marjona G'ofur qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi talabasi
G-mail: gofurovam977@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda tarbiyachining kreativligi haqida to'xtalib o'tilgan. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagog, bola, tarbiyachi, kreativlik, ijodkorlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение инновационных образовательных технологий, используемых в обучении детей дошкольного возраста, а также креативность воспитателя при их применении. Особое внимание уделяется тому, что педагог при организации творческой деятельности должен решать проблемные задачи, анализировать проблемные ситуации и создавать продукты педагогического творчества. Решая проблемные задачи и ситуации, педагог творчески подходит к поиску решений, что способствует развитию его эмоционально-волевых качеств. В процессе постановки проблемных задач педагог сталкивается с фактами, противоречащими его знаниям и жизненному опыту, что формирует потребность в саморазвитии и самостоятельном обучении. Проведение научно-исследовательской работы и реализация творческих проектов способствует дальнейшему развитию креативного потенциала педагога. Педагог не становится творческим автоматически.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагог, ребёнок, воспитатель, креативность, творчество.

Abstract. This article discusses the importance of innovative educational technologies used in teaching preschool children and the creativity of the educator in the use of innovative educational technologies. When organizing creative activities, the educator should pay special attention to solving problem issues, analyzing problem situations, as well as creating creative products of a pedagogical nature. When solving problematic issues and situations, the educator's creative approach to finding a solution to the problem helps him develop emotional and volitional qualities. By setting problematic issues before him, the educator encounters evidence that contradicts his existing knowledge and life experience. As a result, he feels the need to work on himself, to study independently. The implementation of scientific research and scientific or creative projects by the educator further develops his creative potential. The educator does not become a creator by himself.

Keywords: preschool education, teacher, child, educator, creativity, ingenuity.

Kirish. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda tarbiyachining kreativligi masalasi bugungi kunda pedagogika va maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda kreativlik tarbiyachining yangicha fikrlashi, innovatsion metodlarni qo'llashi hamda bolalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Pedagog olimlarning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar bolaning faolligini oshirish, ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish va samaradorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Xususan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yin texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish tarbiyachidan ijodkorlik va kasbiy mahoratni talab etadi. Tadqiqotlarda kreativ tarbiyachi ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishi, bolalarni erkin fikrlashga undashi hamda individual yondashuv asosida ishlashi ta'kidlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bugungi kunda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy metod va texnologiyalarni samarali qo'llash usullari keng yoritilgan bo'lib, ular mazkur tadqiqot uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Har tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta'lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Adabiyotlar tahlili. "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagogtarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va metodik qo'llanmalarni o'rganish hamda tahlil qilish orqali nazariy ma'lumotlar umumlashtirildi. Tadqiqot davomida kuzatish, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari o'rganilib, tarbiyachilarning kreativ yondashuvlari tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishda tarbiyachining kreativligi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishda tarbiyachining kreativ yondashuvi muhim omil hisoblanadi. Mashg'ulotlarda interfaol metodlar, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik usullardan foydalanish bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Ayniqsa, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvur doirasi va ijodiy faolligi sezilarli darajada rivojlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida tarbiyachining zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyasi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qilishi aniqlandi. Kreativ tarbiyachilar tomonidan tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning darsdagi faolligi, muloqotga kirishuvchanligi va jamoada ishlash ko'nikmalari yuqori natija ko'rsatdi.

Natijalar tahliliga ko'ra, raqamli ta'lim vositalari, didaktik o'yinlar va interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiyachining yangilikka intilishi, pedagogik mahorati va kreativ fikrlashi maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri ekanligi

isbotlandi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini kreativ yondashuv asosida qo'llash bolalarning intellektual, kommunikativ va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ham oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda tarbiyachining kreativligi muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat mashg'ulot sifatini oshiradi, balki bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ta'limga bo'lgan qiziqishini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, interfaol metodlar va multimedia vositalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlashda samarali natija berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tarbiyachining kreativ yondashuvi ta'lim mazmunini bolalar yoshiga mos, qiziqarli va tushunarli shaklda tashkil etishga yordam beradi. Kreativ tarbiyachi yangi pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali bolalarda erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion muhitni yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, barcha tarbiyachilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi, texnik vositalarning cheklanganligi hamda metodik qo'llab-quvvatlashning kamligi zamonaviy texnologiyalarni to'liq qo'llashga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ular uchun amaliy seminar va treninglarni tashkil etish zarur hisoblanadi. Muhokama natijalariga ko'ra, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini kreativ yondashuv bilan uyg'unlashtirish maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ta'lim samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
2. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2020.

3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018.
5. Musurmonova O. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.
7. Sharipov Sh. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar.
10. UNICEFning maktabgacha ta'lim va innovatsion ta'lim texnologiyalariga oid metodik tavsiyalari.

